

AXLOQSHUNOSLIK FANINI O‘QITISHDA SHAXS AXLOQIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALASI

Abdullaev Mirshod Shuxratovich,

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasida o‘qituvchisi,

Buxoro shahri, O‘zbekiston Respublikasi.

Email: mirshodabdullayev@gmail.com,

Karimov Farruxbek Farhod o‘g‘li,

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish” kafedrasida talabasi,

Buxoro shahri, O‘zbekiston Respublikasi.

Email: farruxbekkarimov888@gmail.com

Annotatsiya: Maqola shaxs axloqiy tarbiyasini takomillashtirish to‘g‘risida buyuk sharq va g‘arb olimlarining qarashlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ma’rifat, axloq normasi, komil inson, axloq.

THE PROBLEM OF IMPROVING PERSONAL MORAL EDUCATION IN THE TEACHING OF THE SCIENCE OF ETHICS

Abstract: The article is devoted to the analysis of the views of the great Eastern and Western scientists on the improvement of moral education of the individual.

Key words: spirituality, enlightenment, moral norm, perfect person, morality.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh mezoni, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi yangilanishlarning asosiy yo‘nalishlari, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirayotgan muhim omillar bevosita axloqning ma’naviyat tizimida muhim

o'rin tutganligidan dalolat beradi. Axloq normalari bir xalqdan boshqa xalqlarga, avloddan avlodga o'tib, boyib, takomillashib boradi. Mukammal axloq va komil inson haqidagi tushunchalar har bir davrning imkoniyatlari va mezonlari asosida belgilanadi. “Axloqshunoslik” fanini o'qitish zamonaviy interaktiv metodlarga boy, ko'proq bahs va munozaraga chorlaydigan, o'qituvchi va tala-balar o'rtasida jonli muloqotni ta'minlaydigan, sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgan mavzular yoshlarimizni har tomonlama mukammal inson bo'lib yetishlarida, milliy qadriyatlarimizga sodiq, vatanparvar, el-yurt xizmatiga tayyor kadr bo'lib yetishishlarini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. [1]

Shuningdek talaba– yoshlarimizga axloq tushunchasini tushuntirganda, avvalo har qanday holatda ham insoniy qadr-qimmatni yuksak tutuvchi, axloq-odob, jamiyat tabiatga munosabat ilm-ma'rifat bobida fidoyi shaxslarni tarbiyalash, so'ngra millatni chuqur anglovchi halqning tili, ruhi, fe'l-avtori va an'alariga ongli ravishda amal qiluvchi, tarixiy – etnik ildizlarni puxta bilgan, millatdoshlarining o'tmishi, bugungi va istiqbolidan faxrlana oladigan insonlarning yetishtirish ko'zda tutiladi.

Sharqona axloqiylikning shakliy jihatdan: ko'zlangan maqsadga erishish vositalari, davr va taraqqiyot sur'atga qarab o'zgara borishi tabiiy. Ta'lim –tarbiya ong va danyoqarashni sharllantirgani sari kelgusi avlod uning shakliy jihatdan uyg'unligi masalasini ham teranroq tushunib olaveradi.

Zamonaviylik deganda esa (mazmun jihatdan) avvalo, Vatanga mehr-muhabbatni uning iqtisodiy –siyosiy, ijtimoiy-madaniy, fan- texnikaviy taraqqiyotiga hissa qo'shish deb tushunadigan, uning jahon hamjamiyatidagi o'rnini mustaxkamlashga intiladigan, dunyo xalqlari erishgan yutuq va taraqqiyotga mahliyo bo'lib qolmay, ularning bor ijobiy jihatlarini o'zlashtirishga urinadigan shaxsni kamol toptirish ko'zda tutiladi.

Odob – axloq bobida Sharqliklar:

Sharq iftixori Ibn Sino bunday yozadi: «Axloq - har bir kishining o'zini- o'zi idora qilish ilmdir. Bu ilmni egallash o'z-o'zidan bo'lmaydi, balki unga ko'nikma natijasida, e'tiqod vositasida erishiladi. Muayyan qoidalarining maqsadga muvofiq bo'lishi uchun ularning zaruriyiligini anglab yetmoq lozim» [2]. Abdulla Avloniy –

«Axloq - insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqilarning yaxshiligini, yomon xulqilarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq kitobi deyilur».[2]

Yevropaliklar: buyuk fransuz adibi G.Flober «Nimaiki go'zal ekan, u – axloqiydir» deydi. Yoki rus faylasufi N.Chernishevskiy: «Inson qaysi narsada o'zi o'ylagan ma'nodagi hayotni (tiriklikni) ko'rsa, o'sha mavjudot go'zaldir» deb yozadi. Bu gaplarda mumtoz rus estetikasining mohiyati jamuljamdir.

Bilim olish – milliy g'ururni shakllantirishning yo'nalishlaridan biridir. Chunki inson kamolotiga bilim egallash ulkan vazifalardan biri hisoblanadi. Bilim olgan kishi har tomonlama rivojlangan, odobli, axloqli, kamtarin, komil inson bo'ladi. Har qaysi insonning, fuqarolarning bilim darajasi jahon talablari darajasida, ya'ni fan – texnikaga, bozor iqtisodiyoti madaniyatiga javob beradigan bo'lishi kerak. O'sha komil inson. Uning olgan bilimi hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarida yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarida rag'bat, qayg'uli kunlarida madadkor bo'ladi. Bilim insonni aql – idrokli, bilimdon, hunarmand, irodali, e'tiqodli qiladi.

Muhammad alayhisallom aytdilar: «Bir soat ilm o'rganish kechasi bilan namoz o'qib chiqqandan afzaldir», «Bir kun ilm o'rganish uch oy ro'za tutgandan yaxshiroqdir», «Ilm ibodatdan sevimliroqdir».

Ilm hayot va turmushda orttirilgan tajribalarning amaliy va umumiy – nazariy natijasidir. Bunday holatda, ya'ni inson ilm tufayli har qanday qiyinchilikdan oson chiqib ketishi mumkin.

Zukkolik, topqirlik, aql – zakovat, hozirjavoblik, donolik va donishmandlik, chechanlik kabi fazilatlar ilm – idrokning kuchliligi bilan bevosita bog'liq. [3]

Ilm –fan, shu jumladan uning tarixi, inson uchun borliq haqida aniq va to'g'ri ma'lumot berishi bilan birga, uning ma'naviy qadriyatleri, xususan, yaxshilik va yomonlikni ajratishga qaratilgan muhim vosita va ma'naviy me'yor deb ta'riflanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Ma’ruzalar matni. Toshkent, 2000 y
2. Jumaboev Y. O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. Toshkent, 1998 y.
3. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. Toshkent, 2001 y.

